

AKBAR MIRZO ROMANLARIDA ZAMON VA QAHRAMON MUAMMOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833328>

Boltayeva Vazira Komilovna
*Berdaq nomli qdu adabiyotshunoslik:
O'zbek adabiyoti magistranti.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Akbar Mirzoning “Ajral bilan yuzma yuz” detektiv romani realistik asar sifatida yuzaga kelganligi, o'z navbatida romanda, zamon va qahramon muammolari, Elyor, Aziz kabi qahramonlarning hayotdagi muammolari, qalbi, o'y-xayollari, kechinmalari orzu istaklari tahlil qilinadi. Roman qahramonlarining zamon va makondagi o'zgarishlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, to'g'ri yo'ldan ketishligi, qiyinchiliklarni sabr bilan yengishi, oila, farzand, do'st, yurt Vatan oldidagi burchini bajarish. Va'daga vafod qilish, Vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, shu yurt farzandi ekanligini butun dunyoga ko'rsatish va Vatanni bilan faxrlanish tuyg'usi singdirilgan..*

Kalit so'z: *dedektiv roman, Vatan, burch, realistik asar, makon va zamon, qahramon, muammo, qalb, o'y-xayol, kechinma.*

Har bir ijtimoiy-tarixiy shakllanish mafkuraviy munosabat, ijtimoiy munosabatlar, estetik imtiyozlarni tug'diradi, bu esa san'atda ma'lum janr shakllanishi uchun poydevor vazifa o'taydi. Roman-nasriy asar janri; muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanishi va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan ma'lum ma'noda mustaqil olam sifatida tahlil va talqin etiladi. Muayyan shaxs taqdirining oilaviy-maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy va tarixiy muhit bilan o'zaro uzviy aloqada tasvirlanishi roman janrining ko'lami va g'oyaviy-badiiy qimmatini namoyish etadi.

Akbar Mirzo (Nurmatov Akbarali Mirzaqosimovich) 1961 yil 28 fevralda Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida tug'ilgan. 1978 yili o'rta maktabni bitirgach, jurnalist bo'lish orzusida Toshkentga yo'l oladi. Biroq o'sha yili omadi chopmaydi. Kelgusi yili esa unga hozirgi M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirish nasib etadi. 1984 yili universitetni muvaffaqiyatli tamomlab, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga kichik muharrir va fotomuxbir bo'lib ishga joylashadi. Oradan bir yil o'tib, yangi tashkil etilgan “Mehnat” nashriyotiga muharrir bo'lib ishga o'tadi. 1985-1991 yillarda oddiy muharrirlikdan to direktor o'rinbosari lavozimigacha bo'lgan qizg'in ijodiy yo'lni bosib o'tadi. 1991-2012 yillar davomida Akbar Mirzo O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida etakchi muharrir, “O'zdavkitobsavdota'minoti” OAJda bosh direktor o'rinbosari, “Cho'lpon” va “Yangiyo'lpoligrafservis” nashriyotlarida bosh muharrir vazifalarida ishlab, tajribali

noshir sifatida tanildi. Ayni paytda “MITTI YULDUZ” MChJ rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Akbar Mirzoning 1988 yilda “Orzuga oq yo‘l” asari, 2001 yilda “Qalb isyoni” hikoyalar to‘plami, 2010 yilda “Ayozi cho‘zilgan bahor”, 2011 yilda “Najot kemasi” qissalari kitob holida nashr etildi. 2013 yilda esa iste’dodli yozuvchining “Oqtepalik o‘g‘ri” va “Ajal bilan yuzma-yuz” romanlari birin-ketin nashrdan chiqdi. Ushbu asarlarni kitobxonlar katta qiziqish bilan kutib olishdi. Ayniqsa, yozuvchining “Ajal bilan yuzma-yuz” romanida mustaqillikning dastlabki yillarida ro‘y bergan kurashlar, endigina shakllanayotgan tuzumni o‘zgartirishga bo‘lgan urinishlar va bu borada O‘zbekiston Prezidentining olib borgan oqilona siyotati va mardonavor kurashi to‘g‘risida hikoya qilinadi. Roman Yurtboshimizning siymosi ifodalangan ilk badiiy asar sifatida e’tirof etilgani bilan diqqatga sazovordir. Akbar Mirzo romanning davomini yozish ustida ijod qilmoqda.

Akbar Mirzo 80-yillarning oxiri - 90-yillar boshidagi tahlikali vaziyat, turli ekstremistik guruhlarining qabih xurujlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Namangandagi hokimiyat binosida qahr-g‘azabga to‘lgan olamon bilan yuzma-yuz kelishi va istiqloqlning dastlabki yillaridagi suronli voqealar muallif tomonidan ilk bora badiiy tasvirga ko‘chirilgan. Asarlarda, shuningdek, harkunijalbilanyuzma-yuzkelayotgan yurt posbonlarining mardlik vajasoratikengyoritilgan.

Nurmatov Akbarali Mirzaqosimovich (adabiy taxallusi Akbar Mirzo) 1961 yilda O‘zbekiston Respublikasining Andijon viloyatida tug‘ilgan. 1984 yilda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasida kichik muharrir bo‘lib ish boshladi. 1985-1991 yillarda “Mehnat” nashriyotida muharrirdan direktor o‘rinbosarigacha bo‘lgan lavozimlarda ishlagan. 1991-2012-yillarda Akbar Mirzo “O‘zdavkitobsavdota‘minoti” AAO direktorining o‘rinbosari, “Chulpon” va “Yangiyo‘lpoligrafservis” nashriyotlarida bosh muharrir, “O‘zdavkitobsavdota‘minoti” nashriyoti yetakchi muharriri lavozimlarida ishlagan. Hozirda “MITTI YULDUZ” MChJ direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Akbar Mirzoning nashr etilgan kitoblari:

1988 yilda «Mehnat» nashriyoti uning birinchi kitobi — «Orzugaokiyul» («Umidning ezgu yo‘li») publitsistik maqolalar to‘plamini nashr ettirdi.

2001 yil - "Kalbisoni" ("Ruh ichidagi vulqon") - hikoyalar;

2010 yil - "Ayozichuzilganbahor" ("Bahorning uzun ayozi") - hikoya;

2011 yil - "Najotkemasi" ("Najot kemasi") - hikoya;

2013 yil – “Oqtepalik ilonbag‘allari” (“Oqtepalik o‘g‘ri”) – roman;

2013 yil - "Azhabilanyuzma-yuz" ("O'lim bilan yuzma-yuz") - roman;

2017 yil - "Suikasd" ("Urinish") - roman;

2017 yil - "Sungginido" ("So'nggi qo'ng'iroq") - romanlar;

2018 yil - "Snayper" - hikoya.

Hozirda u terroristik guruhlar tarkibida o'z vataniga qarshi kurashayotgan o'zbeklar haqida "Sargardon" romanini yozmoqda.

Toshkentda yashaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2001 yil - "Kalbisoni" ("Ruh ichidagi vulqon") - hikoyalar;
2. 2010 yil - "Ayozichuzilganbahor" ("Bahorning uzun ayozi") - hikoya;
3. 2011 yil - "Najotkemasi" ("Najot kemasi") - hikoya;